

XITOY EKSPORT O'SISHI VA UNING GLOBAL SAVDOGA TA'SIRI

Yo'lchiyev Azizbek Baxrom o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti,

Xalqaro Iqtisodiyot va Menejment fakulteti,

0-1a-24 guruh talabasi

azizbekyulchiyev2006@gmail.com

+998940924906

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada Xitoy eksportining o'sishi va uning global iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Xitoyning iqtisodiy siyosati, ishlab chiqarish salohiyati va investitsiya muhiti uning xalqaro bozordagi yetakchi o'rniga erishishida asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida, ayniqsa, Xitoyning texnologiya va kiyim-kechak sektorlaridagi eksport salohiyati, ushbu sohalarining global bozorga ta'siri va iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: eksport, diversifikatsi, kiyim-kechak, JST, EV, integratsiya, globallashuv, iqtisodiyot, sektor, statistika, savdo, mahsulot.

KIRISH

So'ngi bir necha o'n yillikda Xitoy dunyodagi eng yirik eksportchilardan biri bo'di va uning eksport hajmi faqatgina milliy iqtisodiyot bilan cheklanib qolmay balki global iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2001 yilda Xitoy Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bolishi xalqaro iqtisodiyotda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Bu jarayon Xitoy uchun savdo imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida katta yutuq bo'lsa, boshqa mamlakatlar uchun yangi va kuchli raqobatchining paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra Xitoy eksport hajmi 2001 yildan keyin o'rtacha 15% ga oshdi va 2010 yilda 1.58 trillion dollarga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatning Jahon savdo tizimida ulkan yutug'ini ko'rsatdi. So'nggi yillarda esa Xitoy global eksport hajmini yanada oshirib, 2024 yil dekabr oyida Xitoy 336 milliard dollar eksport qildi va 231 milliard dollar import qildi, natijada savdo balansi 105 milliard dollarni tashkil etdi. 2023-yil dekabridan 2024-yil dekabrigacha Xitoyning eksporti 39,9 milliard dollarga (13,5 foizga) 296 milliard dollardan 336 milliard dollarga, import esa 2,51 milliard dollarga (1,1 foizga) 228 milliard dollardan 231 milliard dollarga oshdi.¹

ADABIYOT SHARHI

¹

<https://oec.world/en/profile/country/chn?timeLinePlot=yearOption&growthLinePlot=growthOption&subnationalDepthSelector=productHS6>

2001 yilda Xitoy davlati JSTga rasmiy ravishda azo boldi. Tadqiqotlar shuni ma'lum qiladiki Xitoy eksport savdosi davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoda cheklovlarni kamaytirish va iqtisodiy globallashtirishga asosiy etiborni qaratishga harakat qilgan hamda global savdo tizimi ishlab chiqish va qonun - qoidalarini takomillashtirishni rag'batlantirgan.

ZHOU(2021) ta'kidlaydiki, Bugungi kunda GVC(Global qiymat zanjiri) ni boshqarishi yoki unga integratsiyalashish iqtisodiy globallashtirishning muhim yo'nalishiga aylandi hattoki bu butun dunyo davlatlari uchun raqobat maydonidir[5]. Statistik ma'lumotlar tahlil qilish jarayonida shunday hodisani aniqladikki, milliy iqtisodiyotning o'sish sur'ati eksport savdosining o'sishidan sekinroq bo'lgan, ammo u jahon eksportining o'rtacha o'sishidan yuqori bo'lib, global iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan[6]. Bu shuni anglatadiki, mamlakatning tashqi savdosi ichki iqtisodiy o'sishdan tezroq rivojlangan, shu bilan birga, jahon iqtisodiyotining umumiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Cai(2019) fikricha, Xitoyning "Bir kam bir yo'l" tashabbusi va "Tashqariga chiqish" strategiyasi jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga shuningdek Xitoy iqtisodiy o'sishida muhim ro'l o'ynagan [7]. 2020 yildadoimiy afzallikka ega tovarlarning eksporti muntazam ravishda o'sish tendensiyasini saqlab qoldi. Asosan tibbiy va tegishli asbob-uskunalar eksportining yillik o'sish sur'ati 41,5 foizni tashkil etdi. Shuni ko'rish mumkinki, Xitoy tashqi dunyoga nisbatan yuqori ochiqlik darajasini saqlab qolmoqda va xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini yaratishda davom etib, global iqtisodiyotning tiklanishida asosiy ahamiyatga ega [8].


Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaning nazariy va uslubiy asosi Xitoy eksportining o'sishi va uning global iqtisodiyotga ta'sirini ayniqsa, elektromobil (EV) va kiyim-kechak sanoatidan kelib chiqqan holda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida Xitoyning ushbu ikki sektor bo'yicha asosiy savdo hamkorlari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalari statistik va empirik tahlillar orqali baholandi. EV eksportining jadal o'sishi ekologik innovatsiyalar va raqobatbardosh ishlab chiqarish strategiyalariga bog'liq bo'lsa, kiyim-kechak sanoati Xitoyning global yetkazib beruvchi sifatidagi mustahkam mavqeini aks ettiradi. Shuningdek xalqaro iqtisodiy sharoitlarning o'zgaruvchanligi hisobga olinib, ushbu ikki tarmoqning eksport oqimlariga ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJA

Zamonaviy Xitoy iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri uning tashqi bozorlarga yuqori darajada bog'liqligidir. Bugungi kunda Xitoy global eksport yetakchisi bo'lib, davlatning valyuta tushumining 80% eksport faoliyatiga to'g'ri keladi. Ushbu jarayon natijasida taxminan 20 million kishi ish bilan ta'minlangan bo'lib, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 20 foizi tashqi bozorlarga yo'naltirilmoqda. Xitoy eksport nomenklaturasining hajmi 50 mingdan ortiq mahsulot

turlarini o'z ichiga oladi va mamlakat hozirda 182 davlat va mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik o'rnatgan. Shuningdek u 80 dan ortiq davlat bilan hukumatlararo savdo bitimlari va protokollarini imzolagan. Asosiy savdo hamkorlari rivojlangan kapitalistik mamlakatlar bo'lib, Xitoyning tashqi savdo aylanmasining 55 foizi Yaponiya, AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi². Xitoyning eksporti asosan yuqori texnologiyali mahsulotlar jumladan, elektr avtomobillar va elektronika shuningdek, kiyim-kechak kabi yirik sanoat tarmoqlari orqali amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu sohalarning xalqaro bozorlardagi roli ortib borayotgani sababli, Xitoyning savdo siyosati va eksport strategiyalari global iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi.




1-rasm. Mamlakatlar bo'yicha global EV eksportining qiymati (chapda) va miqdori (o'ngda), 2018–23³

2018 yildan 2023 yilgacha Xitoyning elektr transport vositalari (EV) eksporti misli ko'rilmagan darajada – **1016 foizga** oshdi va 2023 yilga kelib **1,6 million** elektromobil eksport qilindi. Bu har qanday eksportchi uchun rekord ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, Xitoyning elektromobil (EV) eksporti qiymati ham ulkan o'sishga erishdi. 2018 yilda **295 million dollar** bo'lgan eksport qiymati **2023 yilda 36,7 milliard dollarga** yetib, **12 334 foizga** oshdi (1-rasm). Bu esa Xitoyning global EV bozoridagi yetakchi o'rnini yanada mustahkamladi. Shuningdek, 2021 yildan buyon Xitoy **elektromobillar eksporti qiymati bo'yicha dunyodagi ikkinchi yirik eksportchi** hisoblanadi. Nafaqat eksport hajmi, balki mahsulot sifati ham sezilarli darajada yaxshilanib, Xitoy ishlab chiqaruvchilari yuqori texnologiyali, samarador va ekologik toza avtomobillarni taklif etmoqda. EV larning o'rtacha birlik narxi oshgani sababli eksportning asosiy qismi rivojlangan, yuqori daromadli mamlakatlarga yo'naltirilyapti. Bu esa Xitoyning elektromobil sanoati miqdor va qiymat jihatidan tez sur'atlar bilan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_Xalq_Respublikasi_iqtisodiyoti

³ [S&P Global Market Intelligence](https://www.spglobal.com/marketintelligence), "HS subheadings included: 8701.24 (electric road-tractors), 8702.40 (electric buses), 8703.80 (electric cars and SUVs), 8704.60 (electric trucks and work vans)," accessed December 7, 2023, and February 15, 2024.

FIGURE 2
China's textile and apparel exports
USD billion




Source: WITS. Includes exports in HS 50-63.

2-rasm.Xitoyning kiyim-kechak sanoatidagi global eksport ulushi va uning o'zgarishi⁴

Kiyim-kechak sanoati uzoq yillar davomida iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar uchun global bozorga kirish va rivojlanishning muhim yo'llaridan biri bo'lib kelgan. Xitoyning dunyo ishlab chiqarish markaziga aylanishi bu jarayonning yaqol misolidir. Ayniqsa, 2000-yillarning boshidan boshlab, Xitoyda ishlab chiqarilgan kiyim-kechak mahsulotlari jahon bozorlariga keng tarqala boshladi. Bu esa nafaqat mamlakatning eksport hajmini sezilarli darajada oshirdi balki global savdo tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Xitoyning to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari eksporti 1992-yildagi 25 milliard dollardan 8 baravarga o'sdi va 2010 yilga kelib qariyb 200 milliard dollargacha o'sdi, o'shanda Xitoyning jahon kiyim-kechak savdosiga qo'shgan hissasi 35 foizga ko'tarildi, bu keyingi 10 ta mamlakat eksportining umumiy hajmiga teng (2-rasm). 2016-yilga kelib, mamlakat eksport uchun bo'lgani kabi mahalliy iste'mol uchun ham shuncha ko'p kiyim-kechak ishlab chiqardi, bu esa mahalliy ishlab chiqarish quvvati hali ham kattaroq ekanligini ko'rsatadi. O'shandan beri Xitoyda daromad darajasi va ishlab chiqarish xarajatlari sezilarli darajada oshdi, to'qimachilik sohasida ish haqi 2003 yildan 2013 yilgacha 242% ga o'sdi. Shunda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish belgilari nisbatan xarajat jihatidan raqobatbardosh va ishchi kuchi ko'p bo'lgan Vetnam, Bangladesh, Hindiston, Turkiya kabi mamlakatlarda kuzatilishi ajablanarli emas. Vetnamning jahon kiyim-kechak eksportidagi ulushi 2014-yildagi 5 foizdan 2023-yilda 9,8 foizga deyarli ikki baravar

⁴ <https://rhg.com/research/china-and-the-future-of-global-supply-chains/>

ko'paydi. Bangladesh 2014-yildagi 4,2 foizdan 2023-yilda 7,1 foizga oshdi⁵. Xitoyning kiyim-kechak sanoatidagi yetakchi mavqei global cheklovlar va AQShning savdo cheklovlariga qaramay saqlanib qolmoqda. Masalan, ayrim kiyim-kechak mahsulotlariga 7,5% bojxona bojlari qo'lanilishiga va Shinjon mintaqasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan UFLPA tartibga soluvchi choralar joriy etilganiga qaramay, Xitoy hali ham jahon kiyim-kechak eksportida yetakchilik qilmoqda. 2023 yilga kelib, mamlakat global eksport bozoridagi ulushi 2014 yilga nisbatan 38% ga kamaygan bo'lsa ham, hanuzgacha dunyo kiyim-kechak eksportining deyarli uchdan bir qismini ta'minlab kelmoqda. Bundan tashqari, Xitoy nafaqat tayyor mahsulotlar, balki polyester va viskozadan tayyorlangan shtapel tolalar, paxta va poliester iplari, taroqli yoki taroqli jun, trikotaj matolar, paxta matolari va poyabzal qismlari kabi oraliq mahsulotlarning ham dunyodagi eng yirik eksportchisi hisoblanadi. (3-rasm).



Source: ITC

3-rasm. Kiyim-kechak oraliq xom ashyo (chapda) va yarim tayyor mahsulotlarning jahon eksportidagi ulushi (o'ngda)

Takliflar

Mahsulot sifatini va qo'shimcha qiymatini oshirish: Xitoy korxonalari texnologik innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga investitsiyalarni oshirish orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar misol uchun elektronika va elektrotransport ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Mahsulot sifatini va qo'shimcha qiymatini oshirish Xitoyning global iqtisodiyotdagi eksport ulushini yanada kengaytirishiga va xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁵ <https://rhg.com/research/china-and-the-future-of-global-supply-chains/>

Yangi bozorlarni kengaytirish: Xitoy kompaniyalari nafaqat an'anaviy hamkor mamlakatlar (AQSh, Yevropa, Yaponiya) balki rivojlanayotgan bozorlar ayniqsa Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlarga ham eksport hajmini oshirishga harakat qilishi kerak. Ushbu hududlar Xitoyning sanoat mahsulotlari, elektronika va avtomobillariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xitoy eksport savdosining global iqtisodiyotga ta'siri: Xitoy eksporti jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, texnologik mahsulotlar va sanoat tovarlari global ta'minot zanjirida muhim rol o'ynamoqda. Kelajakda raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro bozordagi yetakchiligini saqlab qolish uchun Xitoy eksport strategiyasini yanada diversifikatsiya qilishi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi va yangi bozorlarni o'zlashtirishi lozim. Bu esa Xitoyning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini yanada kuchaytiradi va savdo munosabatlarini mustahkamlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning eksporti jahon iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatib, uni xalqaro savdoda yetakchi o'rinlardan biriga olib chiqdi. Bugungi kunda ham mamlakat elektr avtomobillar va kiyim-kechak ishlab chiqarishda oldingi o'rinda turib, dunyo bozorlariga faol kirib bormoqda. Elektr avtomobillarning chet elga sotilishi tez o'sib borayotgani asosan zamonaviy texnologiyalar va arzon narxlar bilan bog'liq. Kiyim-kechak sanoati esa keng ishlab chiqarish imkoniyatlari tufayli global ta'minot tizimida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, Xitoy eksport siyosatidagi har qanday o'zgarish butun dunyo bozoriga ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://oec.world/en/profile/country/chn?timeLinePlot=yearOption&growthLinePlot=growthOption&subnationalDepthSelector=productHS6>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_Xalq_Respublikasi_iqtisodiyoti
3. [S&P Global Market Intelligence](#), "HS subheadings included: 8701.24 (electric road-tractors), 8702.40 (electric buses), 8703.80 (electric cars and SUVs), 8704.60 (electric trucks and work vans)," accessed December 7, 2023, and February 15, 2024.
4. <https://rhg.com/research/china-and-the-future-of-global-supply-chains/>
5. ZHOU Yan. *Research on spatial differences and coordinated development of China's integration into global value chain*. Southeast University, 2021. DOI:10.27014/d.cnki.gdnau.2021.000013. Accessed 27 Mar. 2025.
6. Zhou Jingxiang. *Solving the persistent problems of China's export trade development from the perspective of domestic and foreign economy—"Sino-US dialogue" and "smooth transformation"*. *Journal of Chengdu University of Technology (Social Science Edition)*, vol. 19, no. 6, 2011, pp. 21-39+46. Accessed 27 Mar. 2025.

7. Cai Linghui. *Research on China's export trade and outward direct investment potential*. Zhongnan University of Economics and Law, 2019. Accessed 27 Mar. 2025.
8. Fu Yunjie. *Research on enterprise heterogeneity and added value of China's export trade under the reconstruction of global value chain*. Yunnan University of Finance and Economics, 2023. DOI:10.27455/d.cnki.gycmc.2023.001084. Accessed 27 Mar. 2025.
9. **Lin, Zhiyan**. "China's Export Trade's Effects on the Global Economy." *Journal of Education, Humanities and Social Sciences*, vol. 27, 2024, pp. 221-226. DOI:10.54097/3g79gb89. Accessed 27 Mar. 2025.
"Chinese Vehicle Exports: Electrified." *The Economist*, 15 Feb. 2025, www.economist.com/china/2025/02/15/chinese-vehicle-exports-electrified. Accessed 27 Mar. 2025.